

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISANTURDIYEV SAYFIDDIN YUSUPBAYEVICH**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA IJTIMOIIY  
INFRA TUZILMA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY  
ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Guliston-2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economical Science**

**Isanturdiyev Sayfidin** Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda  
ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy  
asoslari.....

**Исантурдиев Сайфидин** Теоретические основы развития системы  
социальной инфраструктуры в обеспечении устойчивого экономического  
роста.....

**Isanturdiyev Saifiddin**Theoretical basis of social infrastructure system development  
in providing sustainable economic growth.....

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISANTURDIYEV SAYFIDDIN YUSUPBAYEVICH**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA IJTIMOIIY  
INFRA TUZILMA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY  
ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Guliston -2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt1970 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston Davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bobanazarova Jamila Xolmurodovna**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulev Alisher Fayziyevich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Saidaxmedova Nodira Ilxomovna**  
Toshkent davlat pedagogika universiteti iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global beqarorlik sharoitida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarining samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, "...bugungi kunda inson kapitali tanqisligining yomonlashuv tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu birinchi navbatda texnologiya sohasida jadal o'sib borayotgan global o'zgarishlar, siyosiy mojarolar, pandemiya tarqalishi, shuningdek ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, shu jumladan, bu borada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligidir. Tegishli qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilmasa, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi vaziyatning yomonlashishi iqtisodiyotdagi beqarorlik jarayonlarining kengayishiga, uning farovonligini tiklashga to'sqinlik qiladi"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, jahon miqyosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribalarida barqaror iqtisodiy o'sishning ijobiy darajasiga erishish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"<sup>2</sup> doirasida o'zaro tengsizlik va kambag'allikni qisqartirish, ta'lim sifatini oshirish asosida inson kapitalini rivojlantirish, munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi o'sish sifatining muhim mezonlariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish, baholash, iqtisodiy o'sishning samarali yo'nalishlarini tadbiq etishga erishish asosida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishda singari yo'nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda.

---

<sup>1</sup> Всемирный банк [Электронный ресурс]//URL: <https://www.vsemirnybank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-projectfrequently-asked-questions#2>

<sup>2</sup>Преобразование нашего мира: повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года (принята резолюцией 70/1 Генеральной Ассамблеи от 25 сентября 2015 года)//<https://documents-ddsny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N15/291/92/PDF/N1529192.pdf>.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholining turmush sifatini yaxshilash uchun ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, resurslardan unumli foydalanishga ta‘sir etuvchi omillar asosida aholi turmush darajasini yaxshilash kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 21-maqсадida “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish belgilangan. Mazkur vazifalarni hal etishda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini takomillashtirish, mamlakatda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, resurslardan unumli foydalanishga ta‘sir etuvchi omillar asosida aholi turmush sifatini yaxshilash uchun ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish masalalarini kompleks tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot dolzarb hisoblanadi. Mazkur vazifalarni hal etishda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini takomillashtirish, mamlakatda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, resurslardan unumli foydalanishga ta‘sir etuvchi omillar asosida aholi turmush sifatini yaxshilash uchun ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish masalalarini kompleks tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 12 apreldagi PQ-4040-son “2024 - 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqotfan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari doimo iqtisodiy fanlar diqqat markazida bo‘lgan. Iqtisodiyot fanining mashhur nasoyondalari A.Smit, A.Pigu, K.R. Makkonell, S.L. Bryu, S. Fisher, M.Spens, R.Rajnoha, J. Vahancik va boshqalar<sup>3</sup> tomonidan iqtisodiy o‘shishni

---

<sup>3</sup>Смит А., Фридман ДЖ. Петти В., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. - М.: ЭКСМО Пресс, 2000. - 164 с.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. - М.:

ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari o'z ifodasini topgan. Barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishi va uni tartibga solish tadqiqotlari MDH olimlari L.A.Strijkova, A.Illarionov, Ye.Balatskiy, S.Gubanov, N.A.Samarskaya, R.T.Burganov va boshqalar<sup>4</sup> tomonidan amalga oshirilgan.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar asosida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlanishi, uni tartibga solish, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar singari muammolarning umumnazariy jihatlari tadqiqotiga A. Bekmurodov, N. To'xliiev, N. Maxmudov, X.Abulqosimov, B.Berkinov, A.Vaxabov, T.Shodiev, Sh. Shodmonov, U. Madrahimov, M. Turdimuratov va boshqalar<sup>5</sup> katta hissa qo'shganlar.

---

Прогресс, Т. 2 - 1985. - 240 с.;Макконел К. Экономикс / К. Макконел, С. Брю: В 2-х т. Баку: Азербайджан. -Т. 1.: Принципы, проблемы и политика. 1992. -399 с.;Фишер С. Дорнбуш Р, Шималензи Р. Экономика. М.: Дело ЛТД, 1995.-864 с.Доклад о росте. Стратегии устойчивого роста и инклюзивного развития // М.Спенс, Р.Солоу и др. «ВесМир», 2009.; R.Rajnoha, Lesnikova P.,&J.Vahancik Sustainable economic development: The relation between economic growth and quality of life in V 4 and Austria. Economics and Sociologu, 14(3), 341-356.doi: 10.14254 2071-789 X. 2021/14-3/18.  
<sup>4</sup>Илларионов А. Реальный валютный курс и экономический рост// Вопросы экономики. -М.: 2002. №2. с.19-48; Балацкий Е. Отношение к неравенству доходов: количественная оценка// Экономист. - М.: 2007. № 6. с.39-49; Губанов С. Новая целевая задача и условия ее решения// Экономист. -М.:2008. № 3.с.3-21.;Бурганов Р.Т., Ельшин Л.А., Шаропов А.Р. Концепция инклюзивного роста как механизм обеспечения устойчивого развития национальной экономики // Экономика, предпринимательство и право. – 2022.Том 12, № 1. –С 2623-2640.

<sup>4</sup>Илларионов А. Реальный валютный курс и экономический рост// Вопросы экономики. -М.: 2002. №2. с.19-48; Балацкий Е. Отношение к неравенству доходов: количественная оценка// Экономист. -М.: 2007. № 6. с.39-49; Губанов С. Новая целевая задача и условия ее решения// Экономист. -М.:2008. № 3.с.3-21.; Стрижкова Л.А., Куранов Г.О. Качество экономического роста как предпосылка повышения эффективности управления социально-экономическим развитием России. Мир новой экономики. 2020; 14 (3): 83-96DOI: 10.26794/22220-6469-2020-14-3-83-96.

<sup>5</sup>Бекмуродов А. ва б. Ўзбекистон иқтисодиётни либераллаштириш йилларида. 1-5-қисмлар. – Т.: 2005. – 310, Махмудов Н. Иқтисодий ўсиш моделлари ва улардан макроиқтисодий таҳлилда фойдаланиш йўллари // Иқтисод ва молия. – Т.: 2016 йил №3. 2-8 б; Абдулқосимов Х. “Макроиқтисодий тартибга солиш ва Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиши. Монография”. Т.: “Akademiya”, 2011 й. Ўлмасов А., Вахобов А. “Иқтисодиёт назарияси”. Дарслик.Т.:“Iqtisod-Moliya”, Вахабов А. Иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашни методологик жиҳатлари // “Ўзбекистон иқтисодиётини институционал ривожлантириш: ютуқлар, муаммолар, ечимлар” номли анжуман материаллари. –Т.: ТДИУ, 2016 йил 12 март; Шодиев Т. Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, интеллектуаллаштириш ва диверсификациялаш асосида иқтисодий ўсиш сифатини ошириш// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. –Т.: 2011, №1; Ш.Шодмонов (ва бошқ.) Иқтисодиётда тежамкорлик ва мутаносибликни таъминлашнинг назарий-услугий асослари. Т.:ТДИУ. Монография. –Т.: ADIBNASHRIYOTI, 2010. -256 б.; Мадрахимов У.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари. И.ф.д.автореферати. Т.: 2017 й.17 б.; М. Турдимуратов. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш асосида аҳоли турмуш сифатини ошириш. И.ф.ф.д.автореферати. Т.:2023 й.19 б.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, barqarori iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishini takomillashtirishning nazariy va kontseptual yondashuvlar yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi, ushdu muammolarni nazariy, uslubiy, amaliy jihatdan o'rganishni talab etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etish asosida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar dissertatsiya ishining asosiy vazifalari sifatida belgilangan:

barqaror iqtisodiy o'sishning iqtisodiy ahamiyati hamda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish;

mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;

xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy infratuzilma tizimining tajribasi va uning ilg'or tomonlarini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida ijtimoiy infratuzilma tizimi tahlil qilinib, uni baholash ko'rsatkichlarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish sharoitida ijtimoiy infratuzilma tizimining institutsional va huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini tadqiq etish va mazkur tizim rivojlanishi bo'yicha sotsiologik so'rov asosida baholash.

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Sirdaryo viloyatining iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanish holati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishi asosida aholi turmush darajasini yaxshilash strategiyasini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tizimli tahlil, statistik -iqtisodiy va iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "barqaror iqtisodiy o'sish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan ijobiy o'zgarishining muttasil oshib borishi bilan bir qatorda aholini ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining miqdor va sifat jihatidan yuqori darajada qondirilishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;



nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "ijtimoiy infratuzilma tizimi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni aholining hayot faoliyati va turmush darajasini ta'minlashda zarur bo'lgan ijtimoiy (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqa) sohalar obyektlari majmui barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim va uzviy omili jihatidan takomillashtirilgan;

barqaror iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishishni ta'minlash borasidagi institutsional iqtisodiy nazariyaga oid qarashlar ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari uchun davlat tomonidan minimal darajadagi turmush sifati kafolatlari tizimi orqali takomillashtirilgan;

Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar iqtisodiy o'sishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma, aholini ijtimoiy himoyalash tushunchalari nazariy-uslubiy yondashuvlar orqali o'rganilgan;

munosib turmush tarzini ta'minlashda barqaror iqtisodiy o'sish orqali, ijtimoiy infratuzilma tizimining aholini turmush darajasidagi o'rni, rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan strategiyani takomillashtirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish tizimi taklif etilgan;

barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimi ko'rsatkichlarining rivojlanishini bilan bog'liq asosiy mezonlar, omillar o'rganilib ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligidan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishni oshirishga qaratilgan ilmiy apparatni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini yaxshilashga ta'sir qiluvchi omillar va manbalarni o'ziga xos jihatlari asosida iqtisodiy o'sish istiqbollari, aholi turmush sifatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqish, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "barqaror iqtisodiy o'sish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan ijobiy o'zgarishining muttasil oshib borishi bilan bir qatorda aholini ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining miqdor va sifat jihatidan yuqori darajada qondirilishi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Yashil iqtisodiyot» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2024 yil 24-maydagi "10"-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2024 yil 28-maydagi "78"-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi talabalarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining turmush sifatini yaxshilash uchun ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, resurslardan unumli foydalanishga ta'sir etuvchi omillar asosida aholi turmush darajasini yaxshilash kabi yo'nalishlarning iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini bergan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "ijtimoiy infratuzilma tizimi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni aholining hayot faoliyati va turmush darajasini ta'minlashda zarur bo'lgan ijtimoiy (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqa) sohalar obyektlari majmui barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim va uzviy omili jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Yashil iqtisodiyot» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2024 yil 24-maydagi "10"-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2024 yil 28-maydagi "78"-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi talabalarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda YaIM hajmining o'zgarish salmog'iga ta'sir qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash hamda diversifikatsiyalash asosida ularning mutanosib rivojlanishiga asos bo'luvchi ustuvor vazifalarning iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini bergan.

Barqaror iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishishni ta'minlash borasidagi institutsional iqtisodiyot nazariyasiga oid qarashlar ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari uchun davlat tomonidan minimal darajadagi turmush sifati kafolatlari tizimini rivojlantirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Innovatsion rivojlanish agentligining 2024 yil 16-oktabrdagi 01-11/3850-sonli ma'lumotnomasi) Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishida ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalar hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning

mustahkam integratsiyasini ta'minlash borasida yuqori natijalarga erishish imkonini berdi.

Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027-yilga qadar iqtisodiy o'sishning prognoz ko'rsatkichlari Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-maydagi "Respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 313-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Innovatsion rivojlanish agentligining 2024 yil 16-oktabrdagi 01-11/3850-sonli ma'lumotnomasi) Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida hududlarda yoshlarning tahliliy fikrlash, ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, iqtidorli, tashabbuskor yoshlarning o'z intellektual salohiyatini namoyon qilishi va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida hududlarda 13 ta Yoshlar texnoparklarini tashkil etish yuzasidan aniq chora tadbirlar belgilab olishda xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 6 ta, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy amaliy konferentsiyada muhokamadan o'tkazilgan.


**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shu jumladan 3 ta respublika va 1 ta nufuzli xorijiy jurnallarda, shuningdek ilmiy amaliy konferentsiya to'plamlarida 7 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 150 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida barqaror iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy infratuzilma tizimining ilmiy-nazariy, uslubiy jihatlari, iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy infratuzilmaning o‘zaro mutanosibligi, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillar, xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik asosida ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanish tajribasi chuqur o‘rganilgan.



### **1-rasm. Aholini ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojining miqdor, sifat jihatidan qondirilishi va o‘zaro bog‘liqligi<sup>6</sup>**


Tadqiqot ishida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan o‘zgarishi nuqtai nazaridan barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari tizimlashtirilib, mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan. Barqaror iqtisodiy o‘shish kategoriyasiga berilgan

<sup>6</sup>Muallif ishlanmasi.

turli xil ta'riflar, nazariy qarashlarni o'rganib, uning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olgan holda, mualliflik yondashuvlarini ilgari surilgan<sup>7</sup>: barqaror iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulotning qay darajada o'sishini ifodalab, uning samaradorligi iqtisodiy o'zgarishlarga erishishning ko'rsatkichlarini ifodalab, yalpi ichki mahsulot o'sishining xarajatlar o'sishiga nisbati orqali aniqlanadi. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilmaning o'zaro mutanosibligi esa ushbu munosabatlarning subyektlari bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarga erishish natijasida ijtimoiy infratuzilma mutanosibligini tartibga solishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq munosabatlardir.

Bugungi kunda infratuzilma xizmat ko'rsatish yo'nalish vazifasiga ko'ra ikkita yirik guruhga bo'linadi: ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma –aloqa, ulgurji savdo, jarayonlarga servis xizmatlarini ko'rsatuvchi texnik xizmatlar va hakoza, ijtimoiy infratuzilma – jamiyat aholisining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiluvchi xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining yig'indisi. Bular jumlasiga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, uy-joy xo'jaligi va ijtimoiy ta'minot xizmatlari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "barqaror iqtisodiy o'sish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan ijobiy o'zgarishining muttasil oshib borishi bilan bir qatorda aholini ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining miqdor va sifat jihatidan yuqori darajada qondirilishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan (1-rasm).



**2-rasm. Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishining farovonlik darajasiga bog'liqligi<sup>8</sup>**

Shu bilan birgalikda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdagi bosh vazifalarimizdan biri ham bozor infratuzilmasining yo'nalish vazifalariga ko'ra taqsimlangan va o'zaro bog'liqlikda faoliyat yurituvchi tizimini yaratishdir. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamraydi. Ijtimoiy tovar ishlab chiqarishga moslashgan har qanday jamiyat iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash maqsadida

<sup>7</sup>Muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup>Muallif ishlanmasi.

taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo‘nalishini tanlar ekan, uning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi infratuzilma tizimini yaratishi hayotiy zaruratdir. Chunki bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun uning infratuzilmasi yo‘nalish vazifalariga ko‘ra guruhlangan holda o‘zaro uzviy va bog‘lanishda harkatlanishi lozim, bu borada ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi aholining farovonlik darajasini oshirishning eng muhim iqtisodiy vositasi hisoblanadi (2-rasm).

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “ijtimoiy infratuzilma tizimi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni aholining hayot faoliyati va turmush darajasini ta‘minlashda zarur bo‘lgan ijtimoiy (sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat va boshqa) sohalar obyektlari majmui barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning muhim va uzviy omili jihatidan takomillashtirilgan.

### 1- jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida YaXM va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘shish sur‘atlari, foizda <sup>9</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Yalpi hududiy mahsulot	103,9	108,3	104,8	107,7	104,2	105,5
Sanoat mahsuloti	111,6	103,5	118,4	110,4	108,2	107,4
Iste‘mol tovarlari	106,7	109,6	116,7	136,6	117,4	187,5
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	99,2	106,2	103,1	104,1	101,9	104,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	151,8	194,9	147,4	72,4	104,6	149,0
Qurilish ishlari	129,0	146,9	101,5	116,2	107,0	107,5
Chakana savdo tovar aylanmasi	107,9	117,4	105,2	108,8	109,7	107,2
Xizmatlar, jami	11,4	117,5	105,9	117,8	115,9	1128
Tashqi savdo aylanmasi	143,0	151,4	160,5	65,0	129,6	185,6
Ekspart	65,5	157,8	103,2	157,5	102,1	86,8
Import	156,9	149,5	178,2	48,5	145,5	256,6

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda YaIM hajmining o‘zgarish salmog‘iga ta‘sir qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash hamda diversifikatsiyalash asosida ularning mutanosib rivojlanishiga asos bo‘luvchi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotning o‘zgarish salmog‘i sur‘atlarini saqlab qolishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar hisobiga erishilgani va uni yanada jadallashtirish yo‘llarini izlab topish ham iqtisodiy o‘shishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida YaHM va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘shish sur‘atlari tahlil qilinib, mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zgarish salmog‘iga ta‘siri aniqlandi (1-jadval).

Shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘shish tendentsiyalari ijtimoiy infratuzilma sohalarini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda kishilarning turmush darajasiga ham ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Chunki bu rivojlanish ko‘p

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

qirrali munosbatalarni taqozo etib, ehtiyojlar doirasining kengayib, xilma-xil bo‘lib borishiga asos bo‘ladi, shu orqali esa iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotdagi shunday sifatiy ijobiy o‘zgarishlarni nazarda tutadiki, ular aynan ijtimoiy infratuzilmani tezlashtirishga yordam beradi (2-jadval).

**2-jadval**

**Aholining hayot faoliyati va turmush darajasini oshirishda iqtisodiy o‘shirishning ta‘minlanish omili guruhlari<sup>10</sup>**

<b>Barqaror iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash ko‘rsatkichlari</b>	<b>Ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish omili guruhlari</b>
Mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining ta‘minlanishi, iqtisodiy o‘shirishning inklyuzivligini ta‘minlash	Kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi
Iqtisodiy-ijtimoiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘zgarishi va tadbirkorlikning har qanday turlarini rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratish	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligini oshirish ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini yanada yaxshilash
Halqaro hamkorlik va jahon bozoriga chiqishning eng maqbul yo‘llarini ishlab chiqish, faol tashqi savdo siyosatini yuritish	Aholiga sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy madaniy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish dasturlarini amalga oshirish
Aholi daromadlarining o‘shishi va xarid kobilyatini oshirishni ta‘minlash, farovonlikning ijobiy o‘zgarishi va inson salohiyatini oshirish	Turmush darajasi va sifatini oshirish, daromadlar o‘shishi va xarid qobiliyatini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash
Kambag‘allikni kamaytirish va daromadlarni oshirish, kambag‘allikka qarshi kurashish borasida iqtisodiy tafakkurni o‘zgartirishga erishish	Hududlarda ijtimoiy ahvoli og‘ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mavjud mexanizmlarni elektronlashtirish
Iqtisodiyotda yuqori o‘shirish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy valyutaning yanada mustahkamlashni ta‘minlash	Ijtimoiy infratuzilma tizimida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi iqtisodiy-huquqiy asoslarini shakllantirish, hududiy hokimiyat organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi choralarni doimiy amalga oshirish

Barqaror iqtisodiy o‘shirish har qanday rivojlangan xorijiy davlatlarning iqtisodiy dastaklari hisoblanadiki, uni ta‘minlovchi vosita esa texnologik taraqqiyot va innovatsiyalardir. Demak, mamlakatimizda ham texnologik taraqqiyotni o‘stirish, yangi texnologiyani iqtisodiyotga olib kirish va eng asosiysi xorijiy investitsiyalarni kiritishni har tomonlama kengaytirish zarur. Tadqiqot davomida barqaror iqtisodiy o‘shirish va infratuzilma rivoji o‘zgarishi bo‘yicha Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarning tajribasini o‘rganildi va ularning ilg‘or tomonlarini mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

<sup>10</sup>Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning ishining **“Barqaror iqtisodiy o‘shini ta’minlash asosida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish va uni baholash ko‘rsatkichlari” deb nomlangan ikkinchi bobida** mamlakatda iqtisodiy o‘sh sharoitida ijtimoiy infratuzilma tizimining institutsional va huquqiy asoslari, ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari tadqiq qilingan, barqaror iqtisodiy o‘sh va ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

**3-jadval**

**Sirdaryo viloyati bo‘yicha ijtimoiy infratuzilma sohalarining o‘zgarishi salmog‘i<sup>11</sup> (mlrd. so‘m)**

Ko‘rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2022 y.	2023 y.	2023 - 2022 yilga nisbatan (+,-)
Sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar	3,7	16,5	55,3	105,8	136,0	30,2
Oliy ta’lim muassasalari, ilm-fan va innovatsiya	11,3	37,5	138,9	213,8	236,1	22,3
Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	2,8	14	28,6	49,7	52,5	2,8
Yo‘l-transport infratuzilmasi	1 600,3	1 996,7	2 233,2	2 624,1	2 704,5	80,4
Irrigatsiya va melioratsiya	235,6	232,8	197,3	214,8	242,7	27,9
Temir yo‘l transporti	54 966,3	66 287,3 7	78 963,7	85 126,6	87 715,3	2 588,7
Aloqa va axborotlashtirish	28,3	99,0	157,8	287,8	350,9	63,1
Boshqa turdagi xizmatlar	347,1	1103,1	3 303,0	5 018,8	6 099,0	1 080,2

Tadqiqot ishida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlanish mezonlari va ko‘rsatkichlari uning infratuzilmasi rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari kambag‘allik darajasini kamaytirish va turmush farovonligi ta’limning xalqaro mezonlarini shakllantirish, moliyaviy samaradorlik, aholi tomonidan iste’mol qilingan xizmat hajmi, kommunal xizmatlar ko‘rsatish va boshqa mezonlarda ifodalanishi asoslab berilgan. Ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maqsadlari va faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tadqiq qilishni talab qiladi va muallif tomonidan ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlanish mezonlari va ko‘rsatkichlari guruhlangan.

2023 yilda 2022 yilga nisbatan sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar 128,9 %, oliy ta’lim muassasalari, ilm-fan va innovatsiya 110,4 %, irrigatsiya va melioratsiya 112,0 %, yo‘l-transport infratuzilmasi 103,6 % ga oshgan (3-jadval).

Tadqiqot ishida ko‘p omilli ekonometrik modeldagi qatnashadigan omillar sifatida – natijaviy belgi etib, Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi (dona) va YaHM (mlrd. so‘m), aholi soni (mln.kishi), dam olish va davolanish

<sup>11</sup>Muallif tomonidan Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.



maskanlari soni (dona), o'rtacha aholi real daromadlari (so'm), xizmat ko'rsatish korxonalarini soni (dona), sanoat korxonalarini soni (dona), iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd. so'm), maishiy xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi (mln. so'm/kishi.soat), iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi), qurilish ishlari (mlrd.so'm), inflyatsiya darajasi (foizda) jami 11 ta omil belgi tanlab olingan.

#### 4-jadval

#### Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar<sup>12</sup>

Natijaviy ko'rsatkich: Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi, dona – Y	
Omillar	Belgi
YaHM (mlrd. so'm)	X <sub>1</sub>
aholi soni (mln.kishi)	X <sub>2</sub>
dam olish va davolanish maskanlari soni (dona)	X <sub>3</sub>
o'rtacha aholi real daromadlari (so'm)	X <sub>4</sub>
xizmat ko'rsatish korxonalarini soni (dona)	X <sub>5</sub>
sanoat korxonalarini soni (dona)	X <sub>6</sub>
iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd. so'm)	X <sub>7</sub>
maishiy xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi (mln. so'm/kishi.soat)	X <sub>8</sub>
iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)	X <sub>9</sub>
qurilish ishlari (mlrd.so'm)	X <sub>10</sub>
inflyatsiya darajasi (foizda)	X <sub>11</sub>

Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishi ekonometrik modelini tuzish uchun unga ta'sir etuvchi omillar belgilanishlari amalga oshirilgan (4-jadval).

#### 5-jadval

#### Korrelyatsion-regression statistik tahlil uchun tanlab olingan natijaviy va ta'sir etuvchi omillar<sup>13</sup>

	Y(x)	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>	X <sub>7</sub>	X <sub>8</sub>	X <sub>9</sub>	X <sub>10</sub>	X <sub>11</sub>
2011	851	2374,3	727,2	38	536688,8	2300	4196	596,7	477,5	310,1	168,0	107,6
2012	852	2936,1	739,5	38	633933,9	2450	4768	663,1	622,5	321,5	230,3	107,0
2013	853	3446,4	750,6	38	742301,9	2850	4773	852,8	746,8	347,0	313,0	106,8
2014	855	4115,4	763,8	38	858893,9	3181	4796	992,3	915,8	320,7	376,5	106,1
2015	857	5076,9	777,1	37	1010856,7	3321	4874	1083,3	1103,1	340,8	478,9	105,6
2016	859	6059,8	790,6	36	1095026,6	3551	4749	1322,9	1355,6	356,5	540,7	105,7
2017	860	6799,6	803,1	36	1257760,9	3800	5193	1628,0	1603,8	371,9	552,4	114,4
2018	862	8 594,2	815,9	38	1545827,0	4201	5478	2699,3	2031,4	390,7	1001,1	114,3
2019	864	11949,2	829,9	40	1972171,0	4765	5602	5869,1	2726,8	385,9	1926,2	115,2
2020	865	12928,3	846,3	40	2230350,3	6250	6919	7191,9	3303,0	50,6	2407,6	111,1
2021	866	15583,1	860,9	45	2686704,8	7865	7560	8051,8	4183,1	372,1	2708,8	110,0
2022	868	18 210,8	896,6	44	3220369,5	8520	7400	12354,6	5018,8	369,5	3260,1	112,3
2023	872	21549,9	914,0	44	3629234,3	9400	7859	15349,1	6099,0	364,8	3903,8	108,8

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu omillarning natijaviy omilga ta'sirini aniqlash uchun korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bu esa juft korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu usul, bizga, bir-birini takrorlaydigan va natijaviy omil bilan kuchsizroq bog'lanishda bo'lgan omillarni tuzilayotgan ekonometrik modelga kiritmaslik imkonini beradi (5-jadval).

Omillarni tanlash va sifat jihatdan tahlil qilishning uch bosqichli tartibida kelib chiqqan holda omillar o'rtasidagi juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasi tuzildi.

**6-jadval**

**Ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasi<sup>14</sup>**

	Y(x)	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>	X <sub>7</sub>	X <sub>8</sub>	X <sub>9</sub>	X <sub>10</sub>	X <sub>11</sub>
Y(x)	1											
X <sub>1</sub>	0,9697	1										
X <sub>2</sub>	0,9912	0,9846	1									
X <sub>3</sub>	0,7424	0,8684	0,7917	1								
X <sub>4</sub>	0,9637	0,9987	0,9844	0,8759	1							
X <sub>5</sub>	0,9371	0,9857	0,9668	0,9017	0,9908	1						
X <sub>6</sub>	0,9168	0,9636	0,9435	0,9026	0,9682	0,9832	1					
X <sub>7</sub>	0,9092	0,9789	0,9412	0,8864	0,9814	0,9729	0,9411	1				
X <sub>8</sub>	0,9533	0,9966	0,976	0,8818	0,998	0,9925	0,9682	0,9872	1			
X <sub>9</sub>	0,0067	0,006	0,0166	0,0399	0,0082	-0,018	-0,123	-0,02	0,0082	1		
X <sub>10</sub>	0,9374	0,9912	0,9588	0,9017	0,9906	0,9834	0,9699	0,9871	0,9908	-0,075	1	
X <sub>11</sub>	0,5244	0,4376	0,4883	0,2348	0,4236	0,3431	0,3668	0,3356	0,3894	0,1012	0,3861	1

Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F- Fisher mezonining haqiqiy qiymati  $F_{\text{haqiqiy}}=5,58$ . Shuningdek erkinlik darajalari soni surat bo'yicha  $k_1=8$  va maxraj bo'yicha  $k_2=13$ ga teng bo'lganda, Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi  $\alpha=0,05$ da) uchun  $F_{\text{jadval}}=2,77$ . Demak, hosil qilingan ko'p omilli regressiya tenglama ahamiyatli hisoblanadi (7-jadval).

**7-jadval**

**Modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari<sup>15</sup>**

Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti R	Ko'p omilli determinatsiya koeffitsienti R-kvadrat	Korrektlash -tirilgan R-kvadrat	Baholashning standart xatosi	F-haqqi -qiy	P-qiymat	DW
0,999	0,998	0,997	0,38	4,16	0,04	3,16

Mazkur omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin:

1. YaHM (mlrd. so'm) (X<sub>1</sub>)ning bir milliard so'mga oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi (Y)ning 0,002 taga oshishiga olib keladi;

2. Aholi soni (X<sub>2</sub>)ning bir birlikka oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi (Y)ning 0,143 birlikka oshishiga olib keladi;

<sup>14</sup> Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

<sup>15</sup> Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

3. O'rtacha aholi real daromadlari (so'm) ( $X_4$ )ning bir so'mga oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi ( $Y$ )ning 1,52 taga oshishiga olib keladi;

4. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi (mln. so'm/kishi.soat) ( $X_8$ )ning bir birlikka oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi ( $Y$ )ning 0,0001ga oshishiga olib keladi.

### 8-jadval

#### Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar<sup>16</sup>

№	Model ko'rinishi	$F$ – Fisher mezonining hisoblangan qiymati
1.	$X_1(t) = 1553,3 \cdot t - 3123704,5$	7,42
2.	$X_2(t) = 14,98 \cdot t - 29400,7$	5,21
3.	$X_4(t) = 251389,3 \cdot t - 505404607,5$	6,03
4.	$X_8(t) = 442,53 \cdot t - 890261,4$	4,58

Ushbu istiqbolli modellar asosida har bir omilning 2023-2027 yillardagi prognozini hisoblab chiqilgan (9-jadval).

### 9-jadval

#### Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar prognozi<sup>17</sup>

Yillar	$Y(x)$	$X_1$	$X_2$	$X_4$	$X_8$
2011	851	2 374,3	727,2	536688,8	477,5
2012	852	2 936,1	739,5	633933,9	622,5
2013	853	3 446,4	750,6	742301,9	746,8
2014	855	4 115,4	763,8	858893,9	915,8
2015	857	5 076,9	777,1	1010856,7	1 103,1
2016	859	6 059,8	790,6	1095026,6	1 355,6
2017	860	6 799,6	803,1	1257760,9	1 603,8
2018	862	8 594,2	815,9	1545827,0	2 031,4
2019	864	11 949,2	829,9	1972171,0	2 726,8
2020	865	12 928,3	846,3	2230350,3	3 303,0
2021	866	15 583,1	860,9	2686704,8	4 183,1
2022	868	18 210,8	896,6	3220369,5	5 018,8
2023	872	21 549,9	914,0	3629234,3	6 099,0
2024	872	20 074,60	913,7	3407426,9	5419,8
2025	874	21 627,85	928,7	3658816,3	5862,3
2026	875	23 181,10	943,7	3910205,6	6304,9
2027	877	24 834,60	963,8	4161503,6	6746,9

Prognoz natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2027 yilda 2023 yilga nisbatan Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmi 0,5 %, yalpi hududiy mahsulot hajmi 15,2 %, aholi soni 5,4 %, o'rtacha aholi real daromadlari 14,7 % va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi 10,6 % oshishiga erishiladi.

Tadqiqot ishida Sirdaryo viloyatida 2027 yilga qadar jami ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishiga asoslangan prognoz parametrlari ishlab

<sup>16</sup> Muallifning hisob-kitoblari.

<sup>17</sup> Muallifning hisob-kitoblari.

chiqilgan. Qoʻllangan yuqori adekvatlikka ega ekonometrik modellar va ularga tegishli amaliy dasturlar paketlari asosida tanlab olingan obyektida ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanishi qisqa muddatli prognozi aniqlandi. Mazkur prognoz parametrlariga erishish uchun quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirish zarur: investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi ish oʻrinlarini yaratish va ularni yaratishni davlat byudjeti mablagʻlari hisobiga subsidiyalash, sohaning rivojlanish xususiyatlariga koʻra, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil etishda hududning investitsion jozibadorligini oshirish, mahallalarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash orqali ijtimoiy infratuzilma obyektlari rivojlanish jarayonini kengaytirish, eksportni mustaqil jarayonga aylantirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga toʻsiq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish, Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish orqali hududda oila farovonligini taʼminlashning strategik yoʻnalishlarini takomillashtirish boʻyicha takliflar asoslangan.


Tadqiqot ishida mahallalarda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari va turmush sharoiti ogʻir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish boʻyicha xalqaro nufuzli tashkilotlarning tavsiyalarini qoʻllash va xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalarini oʻrganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu jumladan, Xalqaro Mehnat tashkiloti, YuNISYeF va Jahon banki asosiy diagnostik vosita (CODI - Core Diagnostic instrument) bazasida mamlakatimizdagi ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari uchun davlat tomonidan minimal darajadagi turmush sifati kafolatlari tizimi boʻyicha muvofiqlashtirilgan strategiyani takomillashtirish aniqlangan.

Muallifning fikricha, ijtimoiy tovar ishlab chiqarishga moslashgan har qanday jamiyat iqtisodiy oʻsish va aholi farovonligini taʼminlash maqsadida taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yoʻnalishini tanlar ekan, uning muvaffaqiyatini taʼminlovchi infratuzilma tizimini yaratishi hayotiy zaruratdir. Chunki bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun uning infratuzilmasi yoʻnalish vazifalariga koʻra guruhlangan holda oʻzaro uzviy va bogʻlanishda harkatlanishi lozim, bu borada ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi aholining farovonlik darajasini oshirishning eng muhim iqtisodiy vositasi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekistonda barqaror iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish yoʻllari”** deb nomlangan uchinchi bobida barqaror iqtisodiy oʻsish orqali ijtimoiy infratuzilma tizimini sotsiologik baholash, aholining turmush farovonligini taʼminlashda ijtimoiy infratuzilmaning ragʻbatlantirish mexanizmlari, barqaror iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari asoslangan.

Olib borilgan tadqiqot davomida belgilangan aniq sotsiologik tadqiqotlarni oʻtkazish uchun xorijiy, mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan usuliy yondoshuvlar oʻrganilgan. Aniq sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazish boʻyicha katta tajribalar toʻplanib ular asosida tadqiqotlar olib borilgan boʻlsada, biroq ularda infratuzilma rivojlanishidagi muammolar toʻliq oʻrganilmagan, shu sababli mavjud tajribalarga asoslangan holda, sotsiologik baholashmetodikalaridan foydalangan

holda so‘rovnomalar orqali tadqiqotlar o‘zaro bog‘langan bosqichlar asosida o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotlar uchun Sirdaryo viloyatining Boyovut, Sardoba, Xovos, Oqoltin, Sayxunobod tumanlari va Guliston shahri tanlab olindi. Respondentlarning 56,5% erkak va 43,5% ayollardir, shuningdek, so‘rovda ishtirok etganlarning 48,3% 31-49 yoshgacha bo‘lganlar, 25,3% 50-60 yoshdagilar, 20,2% 18-30 yoshdagilar va 6,2% esa 60 yoshdan yuqorilar tashkil etgan. **Siz tibbiy xizmatni qanday baholaysiz?** deb berilgan savolga respondentlarning javoblari quyidagi diagrammada keltiriladi (4-rasm).



#### 4-rasm. Respondentlarning tibbiy xizmatni baholashlari ko‘rsatkichi<sup>18</sup>

Agarda “qoniqarsiz” bo‘lsa nima sababdan deb hisoblaysiz? degan savolga esa ular oilaviy poliklinikalar sonining yetarli emasligi, tibbiyot xodimlari malakasining pastligi, tibbiyot maskanlarining zamonaviy diagnostika jihozlari bilan ta‘minlanmaganligi, arzon va sifatli dori-darmon bilan ta‘minlanmaganlik va birinchi tez tibbiy yordamning ko‘rsatilmashligi singari sabablarni alohida qayd qilingan. **Uy-joy kommunal xizmati faoliyatini respondentlarning 65,6% qoniqarsiz baholanganlar**, uning yechimi sifatida uy-joyga muhtojlarning yashash joyi bilan to‘liq ta‘minlanishi, uy-joylarni joriy ta‘mirlashda moddiy yordamlarni yo‘lga qo‘yish, uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish singari chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaydilar.

Shuningdek, respondentlarning 35,4 % dan ortig‘i tabiiy gaz, energiya va suv ta‘minotini qoniqarli baholagan bo‘lsalar, 42,5 % esa bu xizmatlar turlarini qoniqarsiz hisoblaydilar. Ularning fikricha tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi yetkazib berishda uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik, tabiiy gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektr uzatish tarmoqlarining quvvatini oshirish, ichimlik suv ta‘minoti tarmoqlarini kengaytirish, tabiiy gaz, elektr energiya, suv ta‘minoti bo‘yicha qarzdorlikni o‘z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, mazkur xizmatlar uchun qarzdorlikni bartaraf etishda muhtoj oilalarga imtiyozlar berish singari chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

<sup>18</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

Tanlangan obyektlar bo'yicha respondentlarning ko'pchiligi **Siz maktabgacha ta'lim muassasalari, bog'chalar faoliyatini qanday baholaysiz?** deb so'ralganda ularning 60,9% i yaxshi baholaganlar, 34,5% i esa qoniqarli hisoblaydilar. Bu borada yangi maktabgacha ta'lim muassasalari, bog'chalar mavjud bog'chalarni ta'mirlash, qurish, mazkur obyektlarga yuqori malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish, har bir tarbiyalanuvchi bilan alohida ishlashga erishish, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini ko'paytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim muassasalari uchun to'lovlarda imtiyozlar berilishi, belgilangan dasturdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish va xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish va qo'llash istagini bildirganlar.

Sotsiologik tahlil natijalariga ko'ra, **“Aholining turmush darajasi va farovonligini qaysi sohalarida oshirishni zarur deb hisoblaysiz?”** - degan savolga respondentlar quyidagicha javob berdilar: aholi punktlarida ichimlik suvi, gaz, elektr tarmoqlari, transformator punktlarini ekspluatatsiya qilish va zarur infratuzilmalarni rivojlantirish (32,2%). hududlarda avtomobil yo'llari va yo'lbo'yi infratuzilmasini barpo etish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish (17,0%), ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarni yaxshilashga e'tibor qaratish, bog'cha, maktab, oilaviy poliklinikalarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash (12,5%), bozor infratuzilmasi obyektlarini va servis shahobchalarini barpo etish (11,2%), ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun homiylar va ish beruvchi korxonalar hisobidan uy-joy bilan ta'minlash chora-tadbirlarini belgilash (10,4%), transport va boshqa xarajatlar uchun tijorat banklaridan imtiyozli kredit olishlariga ruxsat berish (10,3%), boshqa yo'nalishlarda (3,3%).

Hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali, optimal foydalanish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash belgilangan.

Muallifning fikricha barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga ustuvorlik berilishi lozim:

-barqaror iqtisodiy o'sish uchun barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish;

-- ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlarining zamonaviy iqtisodiy vositalarini takomillashtirish;

- ijtimoiy infratuzilma tiziminiga investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalariga zamonaviy texnik-texnologiyalarni joriy qilish, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

## XULOSA

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy infratuzilma tizimini yaxshilash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar umumlashtirish asosida quyidagi omillarni muhim deb hisoblanadi: iqtisodiy o'sish, jamg'arma va uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, eksport va uni oshirish, asosiy va inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar, texnologiyalar darajasi va innovatsiyalar, ularni rivojlantirishga qaratilgan infratuzilma holati, ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish asoslab berilgan.

2. Jamiyatda iqtisodiyot amal qilishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri barqaror iqtisodiy o'sish kategoriyasining o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olgan holda, quyidagi mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan: barqaror iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulotning qay darajada o'sishini ifodalab, uning samaradorligi iqtisodiy o'zgarishlarga erishishning ko'rsatkichlarini ifodalab, yalpi ichki mahsulot o'sishining xarajatlar o'sishiga nisbati orqali aniqlangan.

3. O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Sirdaryo viloyatida iqtisodiy mutanosib rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, ijtimoiy infratuzilmalar taraqqiyoti, ta'lim, fan va sog'liqni saqlash va boshqalarning sifat darajasiga erishish, raqobat va erkinliklarini kengaytirish tavsiya qilingan.

3. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish ishonchli moliyaviy manbalar bilan ta'minlanishi, masalan "Obod qishloq", Hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha mahalliy dasturlar" singari mahalliy manbalar va xorijiy investitsiyalardan foydalangan holda ijtimoiy infratuzilmani o'z vaqtida va to'liq modernizatsiya qilish, kommunal xizmtalar ta'minoatida yetishmovchilik va uzilishlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

5. Barqaror iqtisodiy o'sish jihatlarini va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish borasida ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning kontseptual yo'nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash, iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlash mexanizmlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish asoslab berilgan.

6. Iqtisodiy o'sish sifatini miqdor, samaradorlik va ijtimoiylik asosida baholash modellaridan foydalanish asosida barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ilgari surilgan.

7. Mamlakatda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlanishi milliy iqtisodiyotning doimiy rivojlanish dinamikasini belgilab, bu mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy jarayonlarda yuz beradi. Uning zamonaviy holatini o'rganish uchun barqaror iqtisodiy o'sish orqali ijtimoiy infratuzilma tizimini sotsiologik baholash uchun aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan va barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilmaning holati bo'yicha to'plangan ma'lumotlar hududlarda

iqtisodiy o‘rtni ta‘minlash asosida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi borasida tavsiya va takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

8. Aholi daromadlarini oshirish siyosati aholining turmush darajasini oshirishga, munosib hayotni ta‘minlashga qaratilishi bilan birgalikda aholi daromadlari o‘rtasidagi farqlanish darajasini ham kamaytirishga asos bo‘ladi. Aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida teng taqsimlash orqali ijtimoiy sohalar va ish haqi va boshqa daromadlarning farqlanish darajasini kamaytirishni ta‘minlaydi. Hududlarda aholi turmush sifatini yaxshilash mexanizmining zamonaviy shakllarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

9. Tadqiqotlar asosida YaHMning 1 foizga oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmining 0,02 foizga oshishiga, aholi sonining 1 foizga oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmining 0,13 foizga oshishiga, o‘rtacha aholi real daromadlarining 1 foizga oshishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmining 2,9 foizga oshishiga, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat unumdorligining 1 foizga kamayishi Sirdaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma obyektlari hajmining 0,0003 foizga oshishiga olib kelishi aniqlangan.

10. Barqaror iqtisodiy o‘rtni va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlariga ustuvorlik berilishi bo‘yicha takliflar ilgari surilgan:

-barqaror iqtisodiy o‘rtni uchun barcha mintaqalarda biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- barqaror iqtisodiy o‘rtni va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishni tartibga soladigan qonun hujjatlarini tanqidiy tahlil qilish;

- ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlarining zamonaviy iqtisodiy vositalarini takomillashtirish;

- ijtimoiy infratuzilma tiziminiga investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali xorijiy investitsiyalar ko‘magida korxonalariga zamonaviy texnik-texnologiyalarni joriy qilish, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.



**E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI**  
**СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ**  
**LIST OF PUBLISHED WORKS**

**I бўлим (I часть; I part)**

1. Isanturdiyev S.Y Barqaror iqtisodiy o'sish orqali ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishini sotsiologik baholash // *XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI* 2024-4/2. Xiva-2024(08.00.00 №21)
2. Isanturdiyev S.Y Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va ijtimoiyinfratuzilmani rivojlantirishning ayrim masalalari// *XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI* 2024-4/2. Xiva-2024(08.00.00 №21)
3. Isanturdiyev S.Y O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish yo'llari// *IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL V-son* 2024 yil may (UO'K:332.012.23 №97-103)
4. Isanturdiyev S.Y OVERSEAS EXPERIENCE OF IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INCLUSIVE HIGHER EDUCATION IN ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT// *Journal of Management Value & Ethics Jan March 24 Special Issue SJIF8.001 & GIF0.626ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics (08.00.00 Osiyo mamlakatlari nashrlari №6)*
5. Isanturdiyev S.Y Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bosqichlari // Konferensiya materiallari to'plami (O'zbekiston Respublikasi, Jizzax shahri, 14-15 mart 2024 yil)
6. Isanturdiyev S.Y Ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari // Mediamakonda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. /Respublikailmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.– Guliston,“Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti,2024-y
7. Isanturdiyev S.Y Iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishi asosida aholi turmush darajasini yaxshilash strategiyasini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar // *Globalashuv davrida fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligi masalalari* xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024 yil 5-6 aprel

**II bo'lim (II часть; II part)**

1. Isanturdiyev S.Y Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeli // *Management, marketing and finance international scientific journal volume 1 issue-1*
2. S.Y.Isanturdiyev, B.Kushiyeu Bulletin of TUIT: Formulation of Agricultural Management system innovation: Startup Formation and Implementation Management and Communication Technologies 2024.Vol-1(8)
3. Isanturdiyev S.Y/ Xolov.A.X Mintaqaviy iqtisodiy tizim mohiyati va uning nazariy asoslari// *Ўзбекистан Республикасы Илимлер Академиясы*

Қарақалпақстан бөлімінің хабаршысы Журнал 1960-жылдан бастап шығып атыр №1(274) Нукус 2024 Подписано к печати 27.03.24

4. Isanturdiyev S.Y // Xolov.A.X Davlat boshqaruvida innovatsion boshqaruvni joriy etish istiqbollari// Journal of “Eastern world of science” Xalqaro korferensiya 5 yanvar 2022 yil Vol-2 Issue-2